

TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY-USLUBIY JURNALI

IMPACT FACTOR 8.2

Yuqori impact factor 8.2 ga ega bo'lgan Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnaliga qabul qilingan maqolalarga 3 ish kunida DOI raqam olinadi va Directory of Research Journals Indexing Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Google scholar (10 ish kuni) kabi xalqaro ilmiy bazalarda indekslanadi va jurnal belgilangan sanada to'liq shaklda www.talqinvatadqiqotlar.uz rasmiy saytiga joylanadi.

Jurnalga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar qabul qiladi: Fizika-matematika fanlari, Kimyo fanlari, Texnika fanlari, Iqtisodiyot fanlari, Falsafa fanlari, Filologiya fanlari, Pedagogika fanlari, Psixologiya fanlari, Sotsiologiya fanlari, Geologiya va mineralogiya fanlari, Tarix fanlari, Geografiya fanlari, Yuridik fanlari, San'atshunoslik fanlari, Arxitektura fanlari, Biologiya fanlari, Qishloq xo'jaligi fanlari, Tibbiyot fanlari, Farmatsevtika fanlari, Veterinariya fanlari.

talqinvatadqiqotlar.uz

+99891-152-93-14

talqin@bk.ru

№8(45)
30.04.2024





TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO'YICHA
IMPACT FACTOR: 8.2 | № 8(45)

30.04.2024



talqinvatadqiqotlar.uz

AN'ANAVIY XONANDALIK MADANIYATINING RIVOJLANISHI

O'X. Ramazonova

Musiq va san'at kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqola an'anaviy xonandalik madaniyatining yuzaga kelishi, davrlar o'sha gullab yashnashi, badiiy tafakkur taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan tortib, milliy-ma'naviy madaniyat rivojining turli davrlarida ham o'zining yuksak namunalari asosida nafaqat talabalarning ma'naviy-ruhiy madaniyatini tarbiyalashda, balki odob-axloqiy me'yorlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ana'naviy xonandalik, musiq madaniyati, mumtoz musiq merosi, ana'naviy maqom xonandaligi, maqom qo'shiqchilari, o'zbek xalq musiq merosi, maqom san'ati.

Аннотация: В данной статье описывается не только духовная и духовная культура студенчества, начиная с первых этапов развития традиционной певческой культуры, расцвета тех времен, а также развитие национально-духовной культуры в разные периоды национально-духовной культуры. духовная культура в образовании, но и служит воспитанию нравственных норм.

Ключевые слова: традиционное пение, музыкальная культура, классическое музыкальное наследие, традиционное макамное пение, макамы певцы, узбекское народное музыкальное наследие, макамное искусство.

Annotation: This article describes not only the spiritual and spiritual culture of students, from the first stages of the development of the traditional singing culture, the flourishing of those times, and the development of the national-spiritual culture in different periods of the national-spiritual culture. in education, but also serves to educate moral standards.

Key words: traditional singing, music culture, classical music heritage, traditional maqam singing, maqam singers, Uzbek folk music heritage, maqam art.

Kirish. O'zbek milliy musiq va maqom san'ati uzoq o'tmishga borib taqaladi. Mamlakatimizda musiq madaniyatining tarkibiy qismi bo'lmish maqom san'atining rivojlanishi o'z navbatida an'anaviy xonandalik madaniyatini yoshlarda tarkib toptirishga xizmat qiladi. Maqom milliy madaniy meros xalqimizning ajralmas, o'zligini anglatuvchi qadriyat sifatida aholining ijtimoiy hayot ijod sarchashmalari asosida yuzaga kelganligi bilan nihoyatda ahamiyatlidir. An'anaviy xalq og'zaki kasbiy musiq ijodi an'alarining yuzaga kelishi, davrlar osha gullab yashnashi, badiiy tafakkur taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan tortib, milliy-ma'naviy madaniyat rivojining turli davrlarida ham o'zining yuksak namunalari asosida nafaqat

aholining ma'naviy-ruhiy madaniyatini tarbiyalashda, balki odob-axloqiy me'yorlarini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand qilish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[4] qarori ijrosini ta'minlash maqsadida yurtimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji bo'lgan "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani [4], mazkur sohada ilmiy izlanishlar olib borish, darsliklar, tadqiqot ishlari, maqolalar yaratish zarurati dolzarb ekanligi ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: O'zbekistonda maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va an'analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash hamda mumtoz musiqa merosi namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san'atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlarini mahalliy olimlar va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o'rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, maqom san'atining ko'p asrlik ijro yo'llarini puxta o'zlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, yosh avlod vakillariga o'rgatib kelayotgan maqomchilar, maqomshunos ilmiy-pedagog olimlar va mutaxassislar, Maqom markazi xodimlari faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, tajriba almashuvlari, anjumanlar, konsertlar va mahorat darslarini tashkil etish an'anaviy xonandalik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi "An'anaviy ijrochilik" Ananaviy maqom xonandaligi bo'limi o'qituvchisi To'rayev Alisher Hamidovichning "An'anaviy maqom xonandaligi" maqolasida "an'anaviy maqom qo'shiqchilari dunyodagi ko'plab madaniyatlarning muhim qismidir. Ular madaniy merosni saqlash va og'zaki an'analarni avloddan-avlodga etkazishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. An'anaviy maqom qo'shiqchilari o'zlarining ovozlari va musiqiy mahoratlaridan ko'pincha yozilmaydigan hikoyalar, afsonalar va tarixlarni etkazish uchun foydalanadilar. Ular bilim va madaniy o'ziga xoslikning qimmatli manbaidir" – deb ta'kidlaydi.

M.M.Mirabdullaev "An'anaviy xonandalik" nomli o'quv qo'llanmasida O'zbekiston musiqa ta'limi va san'ati sohasida an'anaviy xonandalik asarlarining

tarixiy-tarbiyaviy ahamiyati, o'zbek xalq musiqa merosining kasbiy musiqa an'analarining rivojlanish tarixi, ashula, katta ashula, o'zbek bastakorlari asarlari kabi ma'lumotlar kiritilgan. Shuningdek, XX asr boshlaridan O'zbekistonda yashab ijod qilgan mashhur hofizlar hayoti va ularning ijodiy faoliyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

O'zbekistonda an'anaviy xonandalik ijrochiligi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, 1850-1900 yillarda o'lkamizda bir qancha ijrochilar avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz, Mulla To'ychi Toshmammedov, Madali hofiz, Matyoqub Harratov singari zabardast o'zbek xalqining namoyonda hofizlari shular jumlasidandir. 1930-yillardan keyin an'anaviy xonandalik ijodiyotiga uchinchi avlod vakillari kirib kelishdi. Matpano ota Xudoyberganov, Hojixon Boltayev, Mixail Tolmasov, Yunus Rajabiy, Boboxon va Akmalxon So'fixonov, Shorahim Shoumarov, Erka qori Karimov, Mamatbobo Sattorov, Berkinboy Fayziyev, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Ortiqxo'ja Imomxo'jaev singari hofizlar yetishib chiqdilar. Ular o'z ijro uslublarini yaratishib og'zaki kasbiy musiqa an'alarimiz xazinasini yanada boyitishdi. shu o'rinda aytib o'tish lozimki, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, Doni Zokirov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Muhammadjon Mirzayev, Muxtoijon Murtozoyev, Faxriddin Sodiqov[5.10-b] kabi bastakorlar yaratgan yuzlab ashula va katta ashulalar xalqimizning an'anaviy musiqa merosiga aylandi.

Akademik Yunus Rajabiy boshlab bergan ulkan ishning davomi sifatida musiqashunos olimlar I.Rajabov, M.Yusupov, F.Karomatov, T.G'ofurbekov, O.Matyokubov, R.Abdullayev, T.Salomonova, O.Ibroximov, O.Bekov, S.Begmatov, D.Mullajonov, Q.Panjiyev, N.Turg'unova, G'.Xudoyev kabi musiqashunos olimlar o'zlarining tadqiqotlari o'zbek xalqining musiqiy merosini o'rganishga bag'ishladilar. Ayniqsa, I.Rajabov, M.Yusupov, F.Karomatov, T.G'ofurbekov, O.Matyokubov, R.Abdullayev, T.Salomonova, O.Ibroximov, O.Bekov, S.Begmatov tomonidan chop ettirilgan. Yu.Rajabiyning 6 tomndan iborat musiqa asarlari to'plami (1955, 1957, 1959-yillar) hamda 6 jildlik "Shashmaqom" kitobi (1973-y), I.Rajabovning "Maqom masalalariga doir" - doktorlik dissertatsiyasi (1963-y), M.Yusupovning 3 jildlik "Xorazm maqomlari" (1984, 1987- y), F.Karomatovning 2 jildlik "Xalq qo'shiqlari" (1978, 1985-y), T.G'ofurbekovning "O'zbek ashulachilik maktabi" bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari, R.Abdullayevning "O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining marosim qo'shiqlari", T.Solomonovanning "O'zbek xalq usullari" (1981-y) va O.Ibroximovanning "Farg'ona-Toshkent yo'lidagi maqom qo'shiqlari", "Maqomlar semantikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasi [5.11-b] o'zbek musiqa merosining o'ziga xos jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, musiqiy meros bilan bog'liq asosiy

muammolarni hal etishga ulkan hissa qo'shdi, ular musiqa orqali yoshlarga xonandalik madaniyatini va ma'naviy axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Nusrat hofiz, Misqol hofiz, Tosh hofiz, Marg'ilonlik Zeboxon, Botirboshi xola, Tillo hofiz, Xon og'acha, Tojixon hofiz, Misoq og'acha, Ulug' o'yinchi, Rajabxon hofizalaming nomlari keltirilgan. 1950-yillarga kelib, an'anaviy xonandalik guldastasi navbatdagi avlod qo'liga o'tadi. Orif Alimahsumov, Ochilxon Otaxonov, Orifxon Hotamov, Muhammadjon 14 Karimov, Fattohxon Mamadaliev, Tavakkal Qodirov, Rasulqori Mamadaliyev, Faxriddin Umarov, Umar Otayev, Tolibjon Badinov, Alijon Hasanov, Otajon Xudoyshukurov, Bobomurod Hamdamov, Tojiddin Murodov, Kamoliddin Rahimov, Berta Davidova, Halimaxon Nosirova, Saodat Qobulova, Habibaxon Oxunova, Olmaxon Hayitova, Kommuna Ismoilova singari mashhur ashulachilar an'anaviy xonandalik madaniyati rivojiga xizmat qilganlar.

Natijalar va Munozara. An'anaviy xonandaligi o'ziga xos aholining ijodiy mahsulidir. U juda qadimgi davrlardan buyon mavjud bo'lib, ushbu ijrochilikda ovoz, nafas, cholg'uning bir-biriga hamohangligi, ijroviy tarixi o'ta muhim ahamiyat kasb etib kelgan. An'anaviy xonandalikning aytim jarayonida ijrochilar yakka, juft, guruhli yoki ommaviy tarkibda kuylashlariga muhim ahamiyatga ega bo'lgan. An'anaviy xonandalik madaniyati maqom maktablarining ijro uslublarini o'ziga xos xususiyatlari to'la namoyon etadigan yuksak mumtoz musiqa san'ati sifatida xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati haqida yuksak baho berilib, uning qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analar bilan ma'naviy hayotimizda a'lohida o'rin egallashiga ko'maklashadi.

Asarlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalaming mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelgan, kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimizning balki sharq va dunyo mamalakatlarida ma'lum va mashhurligi bilan madaniyatli xonandalarni tarbiyalashga ularning rivojlanishi bilan ahamiyatlidir.

O'zbek musiqa san'ati tarixida xonandalik san'ati ustozdan -shogirdga an'ana asosida o'tib, shaklanib, rivojlanib, turli sharoitlarga moslashgan holda bizgacha yetib kelmoqda. Xalq ijodiyotidagi folklor ayimlari, og'izaki an'anaidagi kasbiy musiqa -maqomlar, akademik vokal va zamonaviy musiqa ijodiyotida o'zida milliy xususiyatlarni to'la namoyon etgan san'at turi sifatida an'anaviy xonandalik san'ati muhim o'ringa ega.

Azal-azaldan, o'zbek xalqining eng go'zal urf-odatlarini, an'ana, qadriyat va milliy ruhiyatini yuzaga chiqarib, xalqimizning boy ma'naviyatini dunyo xalqlari oldida aslligi va o'ziga xosligini ko'rsatib kelmoqda. Shu bois ham xonandalik an'anasi va uning aytim yo'nalishlari, uslublari shakllanib, rivojlanib kelmoqda. An'anaviy ashula ijrochiligi san'ati aholi orasida keng ommalashdi. Ayniqsa, ularning xonandalik janri jihatidan keng qamrovligi, ijro uslublarining kengligi, joy va makon an'analarning

o'ziga xos mahalliy uslublarida namoyon bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Darhaqiqat, natijada mahalliy unsurlar bilan xarakterlanuvchi ijro uslublar, keyinchalik esa ijro maktablari yuzaga keldi. Andijon, Xorazm, Marg'ilon, Qo'qon xofizlik maktablari yoki Ota Jalol Nazirov, Xamroqul Qori, Usta shodi Azizov, Xojixon Boltaev, Madraxim sheroziy (Yoqubov), Mamadbuva Sattrov, Rasulqori Mamadaliyev, Murodjon Axmedov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Mamatbuva Sattorov, Juraxon Sultonov, Mar'umurjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Fattohxon Mamadaliyev, Kommuna Ismoilova, Nazira Axmedova, Saodat Qobulova, Berta Dovudova, Faxriddin Umarov, Otajon Xudoyshukurov, Tavakkal Qodirov, Xayrulla Lutfiillayev, Kamodiddin Raximov, Sherali Jo'raev, Ortiq Otajonov, Maxmudjon Tojiboev, Munojaat Yo'lchiyeva va boshqa qator yuzlab xonandalarning ijro yo'llari talabalarda an'anaviy xonandalik madaniyatining shakllantirishiga yordamlashadi.

Xonandalik san'atining boshqa yo'nalishlari kabi an'anaviy xonandalikda ham bilim hamda amaliy unsurlar alohida o'rin egallaydi. shunday unsurlardan biri va birlamchi jarayon bu shubhasiz - ovozdir. Har bir insonning o'z ovoz rangi mavjud. Biz ulaming ovoz rangi asosida bir-biridan farqlaymiz va ajratamiz. Xonanda ovozi rangida xonandaning ijro mahorati, so'z talaffuzi, aytim yo'li, kuy va ohangni ijodiy mahorat tajribasi bilan o'zaro mutanosibligiga bog'liq. Xonandalik amaliyotining zamirida mavjud bo'lgan ana shu o'ziga xos bosqichlar, tom m a'noda o'ziga xos darajalami yuzaga keltirganki, ular xalq orasida qo'shiqchi, laparchi, yallachi, doston, termachi, ashulachi, talqinchi, savtxon, nasrxon, zikir, jahrchi, go'yandachi, aytimchi, xonanda va nihoyat hofiz kabi nomlar bilan atalishga olib kelingan. Bular esa o'z o'mida xonandalik san'atining turlari sifatida amaliyotda shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017 y
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, - Toshkent: 2020 y
3. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - B. 488
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori
5. M.M.Mirabdullaev. An'anaviy xonandalik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. 2022.-204 b.
6. Matyoqubov O., Ashurov B., O'rinboev K. Shashmaqom saboqlari (1-kitob). - Toshkent: Fan, 2005. - B. 156.

7. Matyoqubov O., Ashurov B., O'rinboev K. shashmaqom saboqlari (2-kitob). - Toshkent: Fan, 2005. - B. 96.
8. Matyoqubov O. Maqomot. - Toshkent: Musiqa, 2004. - B. 51.
9. Rajabov I.R. Maqomlar. - Toshkent: San'at, 2006. - B. 137
10. Yunus Rajabiy. "O'zbek musiqasi". I, II, V tomlar. Toshkent. 1967

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ZAMONAVIY VOLEYBOLMUSOBOQALARIDA TURLI ZO'NALARDAN HUJUM QILISH NATIJADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISHDA MUSOBOQALARGA MUVOFIQ O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH Tuxtaboyeva Nazokat Yoqubova Oyatxon	4
2.	THE DIFFERENCES OF INDUCTIVE AND DEDUCTIVE APPROACHES IN TEACHING GRAMMAR Sabina Istamova Sabrina Ismatova Sadikova Dildora	8
3.	AUTIZM BOLALARDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH Saidaripova Saida Rahmatjonovna	14
4.	O'ZBEK AYOLLARI NUTQIDA AYRIM DIALEKTIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI Otaxanova Dilafro'z	18
5.	TURIZMDA EKSKURSIYA XIZMATINI TASHKIL QILISH, MUAMMO VA YECHIMLAR Muxammadiyev Dilshod Xomidjon o'g'li Egamnazarov Sardor G'ofirnazar o'g'li	22
6.	16 – 19-ЮЗ ЙИЛЛИҚДА ЖИЗЗАХ ВОҲАСИДА МАДАНИЙ ҲАЁТ Жуманиёз Сангиров	27
7.	AKKUMULYATORLARNING RIVOJLANISH TARIXI VA UNING JAMIYATGA TA'SIRI Mirzaev Ahror Abdullaevich	34
8.	YURTIMIZDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJIRIBADAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI Xasanova Nargiza Atxamovna Saidmurodov Komiljon Bahodir o'g'li Maniyazov Xusanjon Umidjon o'g'li	41
9.	STUDY OF GENDER CHARACTERISTICS OF MEMORY IN PSYCHOLOGY Sharipova Durдона G'anisher qizi	47
10.	XIX ASRNING OXIRI XX ASRNING BOSHLARIDA SHARQIY BUXORO BEKLIKLARIDA SOLIQ TIZIMI Abduraimova Charos Nodir qizi	53
11.	G'ARBIY YEVROPADA ROMANTIZM ADABIYOTIDA SHATOBRIAN ASARLARIDA MUHABBAT KONSEPTINING TUTGAN O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI F.Anorbayeva	58
12.	TURIZM SOHASIDA MEHMONXONA BIZNESI AHAMIYATI VA MEHMONXONALARNING TURLARI Shermuxamedov Davron Iskandarovich Shoxakimov Moxir Anvar o'g'li	62
13.	ЗАПАДНОЕ ВОЗРОЖДЕНИЕ И РЕНЕССАНС ВОСТОКА Рахимова Зарафат Матюсуповна	68
14.	AN'ANAVIY XONANDALIK MADANIYATINING RIVOJLANISHI O'.X. Ramazonova	74
15.	РЕСПУБЛИКАМИЗНИНГ ТОҒЛИ ХУДУДЛАРДАН ЎТГАН АВТОМОБИЛЬ ЙЎЛЛАРИДА ҲАРАКАТ ШАРОИТИНИ ОШИРИШ Элбек Уришбаев Элмурод ўғли	80